



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-mart

RAQAMLAR:

- 2019-yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 543,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarining o'sish sur'ati 194,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 653,3 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 543,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,7 %) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan, %




Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozirgi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (194,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (136,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,6 %), savdo xizmatlari (109,2 %) yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,8 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (31,7 %), moliyaviy xizmatlar (21,5 %), transport xizmatlari (16,9 %), hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,3 %) ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlari**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
Jami xizmatlar	543,2	118,5	100,0
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	34,0	89,3	6,3
Moliyaviy xizmatlari	116,6	194,4	21,5
Transport xizmatlari	91,6	101,2	16,9
shu jumladan			
<i>avtotransport xizmatlari</i>	87,5	100,7	16,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	13,3	106,8	2,4
Savdo xizmatlari	172,3	109,2	31,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	15,3	101,5	2,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	27,2	136,0	5,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	8,0	120,6	1,5
Ijara xizmatlari	10,5	105,4	1,9
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni, ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	15,2	105,7	2,8
Shaxsiy xizmatlar	13,7	103,4	2,5
Me'morchilik muhandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	5,8	102,6	1,1
Boshqa xizmatlar	19,7	117,4	3,6


**2019-yil yanvar-mart oylarida tuman, shaharlar bo'yicha
bozor xizmatlari hajmi**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
Sirdaryo viloyati	543,2	118,5	100,0
shaharlar:			
Guliston	283,3	129,2	52,2
Shirin	6,8	108,2	1,2
Yangiyer	37,0	106,7	6,8
tumanlar:			
Oqoltin	13,3	107,8	2,5
Boyovut	23,6	109,9	4,3
Sayxunobod	31,2	121,0	5,7
Guliston	19,3	106,5	3,6
Sardoba	18,1	102,4	3,3
Mirzaobod	24,0	107,6	4,4
Sirdaryo	65,6	107,1	12,1
Xovos	21,0	109,2	3,9

Hududlar o'rtasida Guliston shahri 283,3 mlrd. so'm bilan yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 129,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (172,3 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (116,6 mlrd. so'm), transport xizmatlari (91,6 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (34,0 mlrd. so'm) hamda ta'lim xizmatlari (27,2 mlrd. so'm) ga oshganligi kuzatildi.


2019-yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ushbu xizmat turining hajmi 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,9 mlrd. so'mga oshgan.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan xizmatlarning eng katta ulushini 31,7 % bilan savdo xizmatlari tashkil etmoqda .

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, %




Savdo xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Guliston shahar (24,8 %), Sirdaryo (16,7 %) va Sayhnobod (13,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Eng past ulushi Shirin shahar (1,6 %), Oqoltin (3,5 %), Guliston (4,8 %) va Sardoba (5,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 172,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,7 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 67,5 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 5,3 % ni tashkil qiladi.


2019-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlarining hajmi 91,6 mlrd. so'mni tashkil etib 101,2 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 16,9 foizni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Guliston shahar (29,7 %), Sirdaryo tumani (19,0 %), Yangiyer shahar (14,3 %) hamda eng past ulushi Shirin shahar (1,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 653,3 ming so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati 116,5 % ni tashkil etdi

2019-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 3175,9 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Guliston shaharda 127,9 % kuzatildi.